



GILOS PAYVANTAGLARINI TANLASHDA MUHUM OMILLAR

M.Sultonbekov – magistrant, Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada gilos daraxtini Mageleb va Mazzard navlarini yetishtirish hamda payvantaglashning muhim jihatlari haqida ma‘lumot berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: gilos, meva, hosildorlik, Mageleb, Mazzard, payvandust, payvandtag.

Gilos navlarini urug‘idan ko‘paytirib asliga to‘g‘ri ko‘chatlar ko‘paytirib bo‘lmaydi. Seleksiya qilingan navlarni ko‘paytirish uchun nojinsiy usullardan foydalaniladi. Ko‘chatlarni nojinsiy (vegetativ) ko‘paytirishning eng ko‘p qo‘llaniladigan usuli bu payvandust kurtagini yoki qalamchasini mutanosib payvandtakka ulashdir. Gilos payvandustlarini kurtagini payvandtakka ulash oson va ishonchlirokdir. Dastlab barcha gilos payvandtaglari urug‘dan ko‘kartirilgan Mazzard bo‘lgan. Ular Yevropa bo‘ylab juda ko‘p miqdorda yovvoyi xolda o‘shib yotgan. Bir dona kurtak yoki kichik qalamchani payvand qilish orqali bir «ona» daraxtdan har yili ko‘plab yangi ko‘chatlarni hosil qilish mumkin bo‘lgan. Ko‘p yillar davomida payvandtaglar payvandust navlarga faqat ko‘chat ko‘paytirish vositasi sifatida qarab kelingan. Ammo ziyrak bog‘bonlar payvandtaglar hosil bo‘lgan yangi daraxtga qo‘shimcha ijobiy sifatlar berayotganligini payqay boshlashgan, masalan, daraxtning o‘shish sur‘atini o‘zgartirishi, hosil miqdorini ko‘paytirishi, noqulay tuproq va iqlim sharoitida chidamlilikni oshirishi kabi. Garchi hozirgi kunda ham payvandtag tanlashda birinchi o‘rinda payvand jarayonining osonligiga e‘tibor berilsada, endilikda boshqa bir qator omillar ham birdek yoki ko‘pincha yanada muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Bu omillarga payvandtagning payvandust o‘shish sur‘atiga, hosilga erta kirishiga, hosil miqdoriga ijobiy ta‘siri va noqulay tuproq sharoiti va tuprok orqali qo‘zgaluvchi kasalliklarga chidamlilikni oshirishini misol qilish mumkin.

Yagona bir payvandtag navi gilos yetishtiriladigan dunyoning barcha mintaqalaridagi turli iqlim va tuproq sharoitlari talablarini to‘la qondira oladi, deb hisoblash xato bo‘ladi. Shuning uchun bog‘bonlar o‘z mintaqalari shart-sharoiti va bog‘ parvarish



usullaridan kelib chiqqan xolda o'zlari uchun eng ma'qul keladigan payvandtag navlardan foydalanishlari katta ahamiyatga ega. Baxtga qarshi payvandtaglarning payvandust o'sishi va hosil berishiga o'tkazadigan ta'siri juda kam o'rganilgan. Bu holatni tushuntirib berish uchun bir qancha nazariyalar taklif qilingan. So'nggi yillarda ularning aksariyati turli endogen (ichki) o'simlik gormonlari muvozanati va payvandust o'sishida kuzatilgan o'zgarishlar o'rtasida bog'liqlik o'rnatishga harakat qilishmoqda. Lekin bu nazariyalarning hech biri payvandtagning payvandust o'sish va hosil solish tabiatiga o'tkazadigan ta'sirini to'liq tushuntirib bera olmaydi.

Tajribalar natijasida odatda gilos payvandust navlarni Mazzard payvandtagiga ulash payvandtag navning tabiiy o'sish sur'ati va hosilga kirish vaqtiga deyarli ta'sir o'tkazmadi. Payvandtag navini to'g'ri tanlashdagi asosiy qiyinchilik bu aytib o'tilgan ijobiy sifatlarni payvandustga bag'ishlash bilan birga daraxt rivojini uzoq yillar davomida ta'minlay oladigan payvandtagni topa bilishdir.

Ko'chatxonada payvand kurtakning yaxshi rivojlanmasligi yoki ekilgandan keyin birinchi yildayoq ko'chatning nobud bo'lishi payvandust va payvandtag o'rtasidagi keskin nomutanosiblik borligiga ishora bo'lishi mumkin. Shuningdek, daraxtlar 8-10 yil davomida yaxshi rivojlanishi va birdan sattik shamol ta'sirida payvand nuqtadan sinib ketishi yoki o'sishdan to'xtab qurib qolishi ham mumkin. Bunday kechiktirilgan nomutanosiblikni daraxt nobud bo'lishidan avvalroq ham ba'zi bir xos belgilar bilan payqash mumkin. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki barglari mayda va sariq bo'lib qolgan, o'sishdan to'xtab qolgan daraxtlar birinchi navbatda shubxa ostiga olinishi kerak, shuningdek mevalari maydalashib qolganlarini ham. Barglarning kuzda erta qizarishi va to'kilib ketishi yoki payvandtag atrofidan ko'plab bachki novdalarning o'sib chiqishi ham nomutanosiblikni umumiy belgilaridan.

Ko'p xisobotlarda payvandustning payvandtagga tutashish joyida yo'g'onlashib ketishi ham nomutanosiblik avj olayotganidan dalolat, deb hisoblashadi, ammo bu doim ham kasallik belgisi bo'lavermaydi, sababi payvandtagga ulangan joyida ancha yo'g'onlashib ketganiga qaramasdan gilos bog'larda 20-30 yil davomida samarali hosil berib kelayotgan sog'lom va mustahkam daraxtlarni ko'plab uchratish mumkin. Virusli kasalliklar nomutanosiblikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ham yodda tutish zarur,



shuning uchun imkoniyat bo'lsa, viruslarga chidamli payvandtag va payvandust namunalardan foydalanish kerak. Sunggi yillarda olib borilgan izlanishlar shuni ko'rsatmokdaki, ba'zi bir «kechikkan nomutanosiblik» holatlarga daraxtlarning muayyan viruslarga juda kuchli ta'sirchan ekanligi sabab bo'lmoqda.

Giloslarda payvand nomutanosibliği sabablari tuliq o'rganilmagan. Ba'zi mutaxassislar muammoni payvand tutashush nuktasiga yaqin joyda maxsus fenol smolalarning mavjudligi va ularning daraxt to'qimalariga sizib kirishi bilan boglaydilar. Boshqalar esa nomutanosib navlar kambiy qismida auksin (o'simlik o'sishi uchun zarur gormonlar) va fermentlar miqdorining kamayishi, deb hisoblaydilar. Payvand nomutanosibliği muammolarini yanada to'liqroq tushunish uchun yana ko'p izlanishlar talab etiladi. Barcha Mazzard payvandtaglari gilos navlari bilan to'liq mutanosib bo'lsa, Magaleb payvandtaglarida ko'pincha muammolar uchrab turadi. Magalebga o'tkazilgan gilos daraxtlarining erta nobud bo'lishi ko'p xollarda kechikkan nomutanosiblik bilan bog'lanadi. Bu haqiqatdan ham daraxt o'limiga sabab bo'lishi mumkin, ammo aniqroq sabab Magalebning qumoq va serloy tuproqlarda vaqtinchalik ildiz anaerobioziga ta'sirchanligidir (tuproq namligi uzoq muddat yuqori bo'lganda ildizlarga kislorod yetishmaydi va fitofloroz kasalligi zararidan payvandtag qurishi mumkin). Magaleb klonlarining gilos navlari bilan mutanosiblik ko'rsatkichi turlicha: Fransiyada yetishtiriladigan mayda bargli klon navning mutanosiblik darajasi janubiy-sharkiy Yevropa hududlarida uchraydigan keng bargli Magalebga nisbatan yuqorirq.

Afsuski muayyan bir gilos payvandust navi va klon payvandtag o'rtasidagi mutanosiblik payvandust navi o'zgartirilganda ham doimo saqlanavermaydi. Shuning uchun yangi payvandtag navlarini seleksiya qilishda ularni imkon qadar ko'proq payvandust navlar bilan sinab ko'rish muhim ahamiyatga ega.

Bizning tatqiqotlarimizda Magelab va Mazzard navlarini turli sharoitlarga moslashishni o'rgandik. Tajribalarimiz davomida Magelab payvantagi nam tuproqlarda yashi o'smasligi, suvi erkin tortiladigan shag'alli yoki qumli yerlarda yashi o'sib rivaajlanishi kuzatildi. Magelab payvantagi ildizi yon tomonga qarab kam o'sib asosan chuqur tik ildiz rivojlantradi. Ushbu chuqur ildizlar Magelab payvantagiga o'tkazilgan daraxtning qurg'oqchlikka qarshi kuchli chidamliligiga o'z hisasini qo'shadi, lekin bu



chidamlilik faqat chuqur o'suvchi ildizlar tufayli deb bo'lmaydi. Mazzard payvantaglari qumloq va serloy tuproqlarda ildizning asosiy qismi tuproqning 20 sm qatlamida to'shama hosil qilib shakllanadi. Shu bilan birga daraxt movuzanatini ushlab turishi uchun yetarlicha o'q ildizlar ham o'sishi ma'lum bo'ldi. Umuman olganda Magelab payvantaglari Mazzard payvantaglariga nisbatan qurgo'qchil sharoitga ancha chidamliroq ekanligi kuzatildi. Kuzatuvlarimiz natijasida Mazzard payvantagi ildiz raki kasaligiga ancha ta'sirchan, Magelab payvantagi esa bu kasalikka o'rtacha darajada ta'sirchan ekanligi aniqlandi. Gilos payvandust navlaning bakterial rakka ta'sirchanlik darajasi kasallikning har xil tur va ko'rinishlarida turlicha bo'lib bu korsatgichga payvantag ta'sir ko'rsatishi mumkun. Ba'zi navlar bir payvantagda kuchliroq boshqasida kuchsizroq ta'sirchanlik namoyon qilsa, boshqa navlar uchun huddi shu payvantaglarda aksincha natija qayd qilinganligi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abrorov Sh. Zamonaviy intensiv gilos bog'lari, Toshkent, 2018
2. Xalqaro KAB tashkiloti – gilos yetishtirish, AQSH, 1996
3. Bas Van Den Ende. Gilos yetishtrish. – Avstraliya, 2016